

O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION STRATEGIYALARI

Yusupov Saidvali Shukrullayevich

Alfraganus universiteti

Nodavlat Oliy ta'lim tashkiloti,

Xalqaro turizm menejmenti kafedrası dotsenti, PhD

saidvaliyusupov@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston to'qimachilik sanoati raqobatbardoshligini oshirishning innovatsion strategiyalarni joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Innovatsion strategiyalarni joriy etishdagi asosiy muammolarni o'rganish uchun SWOT tahlil amalga oshirilgan. To'qimachilik korxonasining tarmoqdagi raqobat mavqeyini strategik boshqarishning konseptual modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik, sanoat, korxona, paxta, tola, mato, strategiya.

Аннотация

В данной статье разработаны предложения и рекомендации по внедрению инновационных стратегий повышения конкурентоспособности текстильной промышленности Узбекистана. Для изучения основных проблем реализации инновационных стратегий был проведен SWOT-анализ. Предложена концептуальная модель стратегического управления конкурентной позицией текстильного предприятия в сети.

Ключевые слова: текстильная промышленность, промышленность, предприятие, хлопок, волокно, ткань, стратегия.

Abstract

In this article, proposals and recommendations on the introduction of innovative strategies to increase the competitiveness of the textile industry of Uzbekistan have been developed. A SWOT analysis was carried out to study the main problems in the implementation of innovative strategies. A conceptual model of strategic management of the textile enterprise's competitive position in the network is proposed.

Keywords: textile, industry, enterprise, cotton, fiber, fabric, strategy.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda tabiiy tolalardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talab ortib borayotganligini hisobga olsak, O'zbekiston yengil sanoati jahon bozorida faqatgina paxta tolasini yetkazib beruvchi sifatida emas, balki to'qimachilik mahsulotlarini eksport qiluvchi yirik davlat sifatida tanilishi uchun ham keng imkoniyatlarga ega.

Ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori

texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, tarmoq eksport salohiyatini oshirish borasida hukumatimiz tomonidan bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lishiga qaramasdan muammolar saqlanib qolmoqda. Dunyo bozorida raqobat tobora keskinlashib borayotgan hozirgi davrda korxonalarni rekonstruksiya qilmasdan, zamonaviy ilg'or texnologiya bilan jihozlamasdan, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilamasdan turib ularning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin emas.

Ayniqsa, korxonalarni bozor iqtisodiyoti sharoitiga ko'nikishi, yangi texnologiyalarni qo'llash, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, dunyo bozoriga mahsulotlarni olib chiqish ma'lum muddatga mo'ljallangan, ilmiy asoslangan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishni ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

O'z navbatida bunday strategiyani ishlab chiqishning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish, korxonalarining kuchli va zaif tomonlarini chuqurroq tahlil qilish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bo'yicha aniq amaliy takliflar va tavsiyalar tayyorlashni talab qiladi.

Shu sababli iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o'zgartirishlarning ustuvor yo'nalishlaridan bo'lgan to'qimachilik korxonalarini uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxona menejmentining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan strategik boshqaruv raqobat muhiti sharoitida bozorda o'z mavqeyiga ega bo'lishga intilayotgan korxonalar uchun zaruriy shartlardan biri hisoblanadi.

Strategik boshqaruvning nazariy va metodologik asoslari Ansoff I., Porter M., Kuinn Dj., Minsberg G., Rumelt R., Goshal S. kabi ko'zga ko'ringan chet ellik olimlarning asarlarida tadqiq etilgan hamda strategik boshqaruv konsepsiyasi rivojlantirilgan.

Aronov A.M., Bogomolov O.A., Vixanskiy O.S., Goremikin V.A., Yefremov V.S., Zub A.T., Kruglova N.O., Kruglov M.I., Trenyov N.N., Fatxutdinov R.A. kabi Rossiyalik tadqiqotchi olimlarning asarlarida ham strategik boshqaruvning nazariy va uslubiy masalalari tadqiq qilingan.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, strategik boshqaruvning nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirish, shuningdek, yengil sanoatning yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari Xodiyev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., Boltaboyev M.R., Yo'ldoshev N.Q., Maxmudov N.M., Nasirxodjayeva D.S., Shodmonova U.A., Ostonaqulova G.M., Karimova D.A., Yuldashev S.N., Xasandjanov K.K., Turapov R.A. va boshqa bir qator olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

Biroq bu ilmiy ishlarda to'qimachilik korxonalarining rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muammolari raqobat muhitini, dunyo bozori konyunkturasini e'tiborga olgan holda yetarli darajada yoritilmagan. Korxonalarining rivojlanish strategiyasini hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslab berish zaruriyati mazkur tadqiqot mavzusini belgilab berdi.

Tadqiqot obyekti sifatida "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi to'qimachilik korxonalari olingan.

Tadqiqot predmeti, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida to'qimachilik korxonalarini rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, boshqaruv qarorini qabul qilishga yondashuv, statistik tahlil va sintez, taqqoslash, tasniflash, SWOT-tahlil usullaridan foydalanildi.

To'qimachilik korxonalarining rivojlanishini ta'minlovchi strategiyani tanlashda asosiy ko'rsatkichlardan biri uning barqarorligi ko'rsatkichidir. Uni tashkilotning barqarorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkich bilan ifodalash mumkin:

$$Z = 1,2 \cdot X_1 + 1,4 \cdot X_2 + 3,3 \cdot X_3 + 0,6 \cdot X_4 + 1,0 \cdot X_5$$

Bu yerda:

Z — tashkilot barqarorligi;

X_1 - ishchi kapitalning samaradorlik ko'rsatkichi;

X_2 - jamlangan kapitalning samaradorlik ko'rsatkichi;

X_3 - korxona samaradorligi;

X_4 - qarzдорlik ko'rsatkichi;

X_5 - aktivlarning samaradorlik ko'rsatkichi.

Yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar bir vaqtning o'zida korxona faoliyatining samaradorligini ham bildiradi. Agar $Z > 3$ bo'lsa, korxona barqaror, Z — 1,8 dan kam bo'lsa, beqarorligini anglatadi.

To'qimachilik korxonasi mahsulotlarining o'ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, mahsulot tannarxida xomashyo sarfi salmog'i yuqori. Shu boisdan ham, innovatsion-investitsiyalarni joriy etganda xomashyo sarfini qisqartirish, shuning hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyati omilidan ham to'liq foydalanishga erishish lozim. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqotda to'qimachilik korxonalari ishlab chiqarish resurslarini boshqarishda sifatni ta'minlagan holda tannarxni pasaytirish ichki imkoniyatlari matematik modellashtirish usuli orqali asoslangan, yigiruv korxonalarida tolalar aralashmalari tarkibini optimallashtirish uchun chiziqli dasturlash usulidan foydalanishni tavsiya etamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda o'tkazilgan tahlillarga asoslangan holda, respublikamiz to'qimachilik sanoatini rivojlantirishdagi asosiy to'siqlar sifatida, korxonalar moliyaviy holatining barqaror emasligiga ta'sir ko'rsatayotgan omillar aniqlangan.

Birinci guruh omillariga tarmoqning paxta tolasi yetkazib berilishiga bog'liqligini ifodalovchi omillar kiritilgan. Tarmoq korxonalarining moliyaviy

natijalarini xom ashyo bahosi o'zgarishlariga qattiq bog'liqligi omili, birinchi navbatda, mahsulot tannarxi tarkibida xom ashyoning ulushi 80%dan ortiqroqni tashkil etadigan yigiruv-to'quv korxonalarining moliyaviy natijalariga ta'sir ko'rsatadi.

Fikrimizcha, ikkinchi guruh omillari aylanma mablag'larning yetishmasligi bilan bog'liq. «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi aksariyat to'qimachilik korxonalarida aylanma aktivlar taqchilligini ko'rish mumkin. Tahlil ishlari shuni ko'rsatadiki, aylanma mablag'larning taqchilligi, asosan, yigiruv-to'quv ishlab chiqarishida kuzatiladi.

Uchinchi guruh omillari korxonalarning ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalanmaslik va ishlab chiqarishning texnologik darajasi bilan bog'liq. «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish quvvatidan o'rtacha 80% foydalanilmoqda.

To'rtinchi guruh omillar moliyaviy xarajatlar salmog'ining yuqori darajadali bilan bog'liq. Tadqiq etilayotgan korxonalardan «Uzteks Tashkent» QKsida uzoq muddatli kreditlar bo'yicha qarzlari 3,4 mln. AQSH dollari, «Ko'kcha Tekstil» MCHJ korxonasida 4,2 mln. AQSH dollari va «Sirkechi Tekstil» MCHJ korxonasida esa 3,9 mln. AQSH dollarini tashkil etadi.


Beshinchi guruh omillari — to'qimachilik korxonalariga berilgan imtiyozlardan to'liq foydalanilmaslik bilan bog'liq omillardir. Davlat tomonidan to'qimachilik korxonalariga juda ko'p imtiyozlar berilgan bo'lishiga qaramay, ularning ba'zilari bo'yicha amalga oshirish mexanizmi to'liq ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, respublika to'qimachilik korxonalarining raqobat strategiyalari ishlab chiqilgan. To'qimachilik korxonasining tarmoqdagi raqobat mavqeyini strategik boshqarishning konseptual modeli tavsiya etiladi (1-rasm).

Korxona rahbariyati raqobat strategiyasini ishlab chiqishni tashkil qilar ekan, birinchidan, tarmoqning o'ziga xos jihatlari va raqobat shartlarini, ikkinchidan, korxonaning raqobat salohiyatini, uning bozordagi mavqeyi va imkoniyatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak.

Tadqiqot obyekti qilib qabul qilingan to'qimachilik korxonalarining raqobat strategiyalarini ishlab chiqishda, ularda o'rnatilgan texnologiyalar hamda mahsulot ishlab chiqarish va eksporti holatini tadqiq etish, shuningdek, korxonalarning kuchli va zaif jihatlari, imkoniyat va tahdidlarini baholash bo'yicha o'tkazilgan SWOT-tahlil natijalariga asoslanildi.

Fikrimizcha, «Sirkechi Tekstil» MCHJ korxonasi samarali biznesni yo'lga qo'yish uchun yangi imkoniyatlarni izlashga qaratilgan strategiyani amalga oshirishi, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etishi, ishlab chiqarishni kengaytirishi, foydalanilmagan imkoniyatlarni ishga solishi, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishi, bozordagi talab va taklifni hisobga olgan holda yangi mahsulot turlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi, mahsulot sifati va servis xizmatlari bo'yicha raqobat strategiyasini amalga oshirishi maqsadga muvofiq.



1-rasm. To'qimachilik korxonasining tarmoqdagi raqobat mavqeyini strategik boshqarishning konseptual modeli¹

«Ko'kcha Tekstil» MCHJ korxonasi rahbariyati korxonaning raqobat strategiyasini ishlab chiqar ekan, u, albatta, strategiyaning korxona holatiga moslik darajasi mezoni, raqobat kurashida ustunlik mezoni va ishning jadalligini oshirish mezoniga asoslangan bo'lishi kerak. O'suvchi bozor segmentlarini aniqlab, mos strategiya yaratish va ishlab chiqish yo'li bilan fokuslash strategiyasi tomon yo'l tutishi, sifatni yaxshilash va innovatsiya asosida differensiyalash tomon yo'l tutishi, shuningdek, xarajatlar darajasini pasaytirishga qaratilgan strategiyani olib borishi mumkin.

«Uzteks Tashkent» qo'shma korxonasi g'olibona yetakchilik strategiyasini olib borishi maqsadga muvofiq. Bunda xaridorlarga sotuvni oshirish, ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish, xarajatlar zanjirini tuzish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, xalqaro bozorlarga chiqishga harakat qilishi kerak. Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda, maqolada SWOT-tahlil asosida «Uzteks Tashkent» qo'shma korxonasini moddiy resurslar bilan ta'minlashdagi kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlar baholangan (1-jadval).

To'qimachilik sanoati xom ashyo sarfini eng ko'p talab qiladigan tarmoqlardan hisoblanganligi sababli «Uzteks Tashkent» qo'shma korxonasi uchun aralashma tarkibini optimal shakllantirish, xomashyo sarfini qisqartiradigan ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish, korxonaning barcha

¹ Muallif ishlanmasi

resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, boshqaruvning innovatsion ilgʻor usullariga asoslangan holda kompaniya boshqaruvi samaradorligini oshirish strategiyasi tavsiya qilinadi.

1-jadval

«Uzteks Tashkent» qoʻshma korxonasining moddiy resurslar bilan taʼminlashdagi kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, boʻlishi mumkin boʻlgan tahdidlar¹

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
1. Asosiy xom ashyo yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli aloqalar. 2. Korxonaga moddiy resurslarni keltirishning yuzaga keltirilgan tizimi. 3. Isteʼmol qilinayotgan resurslar nomenklaturasining barqarorligi. 4. Xom ashyo yetkazib beruvchilar toʻgʻrisida doimiy maʼlumotlar toʻplash va moddiy resurslar bozoridagi jarayonlarni doimiy tahlil qilish.	1. Asosiy xom ashyo yetkazib beruvchilarga bogʻliqlik. 2. Korxonaning moliyaviy jihatdan barqaror emasligi sababli moddiy resurslar sotib olishni oʻz vaqtida moliyalashtira olmaslik. 3. Moddiy-texnik taʼminot boʻlimi personalini motivatsiyalarning kuchsizligi.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
1. Yangi moddiy resurslar bozorlariga, tashqi bozorga chiqish. 2. Moddiy resurslarni kreditga olish imkoniyati. 3. Moddiy resurslar bozorida ishlaydigan, hamkorlik qilishga tayyor vositachilarning boʻlishi.	1. Korxona mahsulotlariga talabning pasayishi. 2. Yetkazib beruvchilarning bozordagi monopol holatidan kelib chiqib bosim oʻtkazishi. 3. Moddiy resurslar haqini toʻlashda pul toʻlovlarini tashkil etuvchilarning ortib ketishi. 4. Transport xarajatlarining ortishi.

Raqobat sharoitida toʻqimachilik korxonalarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda investitsion loyihalarni boshqarishning asosiy yoʻnalishlari tadqiq etildi hamda istiqbolda investitsion loyihalarni amalga oshirishning ustuvor yoʻnalishlari asoslab berildi:

tayyor gazlamalar, xususan, jinsi gazlamasi, tukli sochiqbop matolar, koʻylakbop gazlamalar ishlab chiqarish;

tayyor trikotaj buyumlari ishlab chiqarish;

toʻqimachilik aksessuarlari, zontiklar, tugmachalar va boshqalarni ishlab chiqarish;

toʻqimachilik dastgohlari, jumladan, toʻquv dastgohlari, yigiruv ishlab chiqarishi uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish.

Shuningdek, toʻqimachilik sanoatida maxsus industrial zonalar tashkil etishga qaratilgan investitsion loyihalar ham respublikamiz toʻqimachilik sanoatini rivojlantirish strategiyasining muhim yoʻnalishlaridan biri ekanligi asoslandi.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda innovatsiyalarga asoslangan yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni rivojlantirish masalalarining keng ko'lamda hal etilishi katta hajmdagi innovatsion faoliyatning ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash, lokalizatsiya va modernizatsiyalash davlat dasturlari asosida amalga oshirilishi, tarmoq fanlarini rivojlantirish, bojxona-tarif siyosatiga javob beradigan zaruriy me'yoriy-huquqiy aktlarning qabul qilinishi mahsulot sifatini yaxshilash, tovar bozorida korxonalarining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu boisdan ham innovatsion yo'li O'zbekiston yengil sanoatini rivojlantirish faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash va uning raqobatbardoshligini oshirish, chet el kompaniyalari, ilmiy va injiniring markazlari bilan hamkorlik sohalarini kengaytirishning samarali modeli uchun yagona yo'nalish bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotida va jahon mehnat taqsimoti bozorida yengil sanoatning o'rnini hamda imijini ko'tarish, tarmoqning investitsion va eksport jozibadorligini oshirish imkonini beradi.

Fikrimizcha, «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasi korxonalarining iqtisodiy salohiyati hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion loyihalarni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

birinchi yo'nalish — iste'mol xususiyatlari oshirilgan «aqli to'qimachilik», narxi va sifati bo'yicha raqobatbardosh, xavfsizlik, ergonomik, gigiyena talablariga mos keluvchi hamda inson faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratilishini ta'minlovchi mutlaqo yangi to'qimachilik mahsulotlari tayyorlash uchun nanotexnologiyalardan foydalangan holda, yangi material va birikmalar ishlab chiqarish.

ikkinchi yo'nalish — ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, marketing tadqiqotlari va moliyaviy menejmentni rivojlantirish, korxonalarining biznes-rejalari hamda biznes g'oyalarini ishlab chiqish, sanoatni tarkibiy qayta qurish dasturlarini ishlab chiqib amalga oshirish innovatsion tizimini yaratish.

uchinchi yo'nalish — material va mahsulotlarni sertifikatlash va standartlashtirish, ularning xavfsizligi hamda foydalanish xususiyatlarini baholash usul va mezonlarini yaratish, shu jumladan, xalqaro standartlar, patentlar, tovar belgilarini hisobga olgan holda mamlakatimiz va xalqaro standartlar uyg'unlashuvini ta'minlovchi normativ-texnik hujjatlar ishlab chiqish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. To'qimachilik sanoati korxonalarining o'ziga xos tashkiliy xususiyatlaridan biri mehnat buyumlarini xom ashyodan tayyor mahsulotga aylanishida mo'ljallangan texnologik jarayon bo'yicha mo'ljallangan o'timlarda, mashinalarda qayta ishlanishi shart ekanligi, shu sababli korxona rivojlanishini ta'minlovchi strategiyani tanlashda alohida joriy etilayotgan mashinaning emas, balki butun texnologik jarayonning samaradorligini aniqlash taqozo etiladi.

2. «Strategiya — korxona tashkiliy vazifa va maqsadlariga erishishda foydalaniladigan tashkiliy xatti-harakatlar hamda boshqaruvga yondashuvlari tarzi, ya'ni biror-bir maqsadga erishish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarishda aynan

belgilangan tarzda harakat qilish majburiyati, shuningdek, qo'yilgan maqsad (natija)ga erishishga yo'naltirilgan boshqarish rejasidir».

3. «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan yetarlicha to'liq foydalanilmayapti. Tarmoq korxonalarida mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish ichki imkoniyatlari mavjud.

4. O'tkazilgan SWOT-tahlil natijalariga ko'ra, «Sirkechi Tekstil» MCHJ samarali biznesni yo'lga qo'yish uchun yangi imkoniyatlarni izlashga qaratilgan strategiyani amalga oshirishi, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etishi, ishlab chiqarishni kengaytirishi, foydalanilmagan imkoniyatlarni ishga solishi, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishi, bozordagi talab va taklifni hisobga olgan holda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi, mahsulot sifati va servis xizmatlari bo'yicha raqobat strategiyasini amalga oshirishi maqsadga muvofiq.

5. «Ko'kcha Tekstil» MCHJ rahbariyati korxonaning raqobat strategiyasini ishlab chiqar ekan, u, albatta, strategiyaning korxona holatiga moslik darajasi mezon, raqobat kurashida ustunlik mezon va ishning jadalligini oshirish mezoniga asoslangan bo'lishi kerak. O'suvchi bozor segmentlarini aniqlab, mos strategiya yaratish va ishlab chiqish yo'li bilan fokuslash strategiyasi tomon yo'l tutishi, shuningdek, xarajatlar darajasini pasaytirishga qaratilgan strategiyani olib borishi mumkin.

6. «Uzteks Tashkent» qo'shma korxonasi o'z rivojlanishida yaxshi ishlab chiqarish bazasi va ishonchli moliyaviy holatiga asoslanib, g'olibona yetakchilik strategiyasini olib borishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. С.Ш. Юсупов, 2011г., Методологические вопросы стратегии обеспечения развития текстильных предприятий. Журнал «Экономика и образование», ТГЭУ, №3, с. 77-81.

2. С.Ш. Юсупов, 2012г., Факторы, влияющие на улучшение инновационного управления в текстильной промышленности. Журнал «Биржа Эксперт», №1-2, с. 28-30.

3. С.Ш. Юсупов, 2012г., Стратегия конкуренции текстильных предприятий Узбекистана. Журнал «Биржа Эксперт», №7-8, с. 15-17.

4. С.Ш. Юсупов, 2012г., Развитие текстильных предприятий и их стратегии конкуренции. Журнал «Биржа Эксперт», №7-8, с. 29-31.

5. С.Ш. Юсупов, 2013г., Экономический потенциал текстильной промышленности Узбекистана. Журнал «Сельское хозяйство Узбекистана», №1, с.28-31.

6. С.Ш. Юсупов, 2013г., Роль инновационных инвестиций в развитии легкой промышленности Узбекистана. Журнал «Сельское хозяйство Узбекистана», №4, с.40.

7. С.Ш. Юсупов, 2014г. Основные направления стратегии развития текстильных предприятий Узбекистана в условиях сильной конкуренции. Монография.» Ташкент, «Наука и технология», 152с.

8. S.Sh. Yusupov, 2015г. The innovative strategy of development of light industry of Uzbekistan. “European Journal of Economics and Management Sciences” Vienna, 2015. -№2. –Б. 44-46.

9. A.E.Rozikov., D.T. Yusupova, 2020 г. Aspects of Organizing Esport-Oriented Textile Products and Export Development. International Journal of Research in Management & Business Studies. (IJRMBS 2020) Vol.

10. D.T. Yusupova, 2019г. Background of the system quality management. International Journal of Advance and Innovative Research. Volume 6, Issue 1 (I): January - March 2019.

11. D.T. Yusupova, 2019г. Analysis of influence factors on Uzbekistan stock market development trends. Asian journal of technology and management research.